



“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA DAVR VA SHAXS TALQINI

**Quranboyeva Nozima, Axmedova
Muxlisa, Satmuratova Xurmo**
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Turkiy tillar fakulteti talabalari

Annotatsiya. Agar ziyolilarimiz, yozuvchilarimiz, adabiyotshunoslarimiz qalami bilan hozirgi adolatni qo‘rmasdan yozsa, Abdulla Qodiriylar, Cho‘lponlar, Fitratlar ruhi shod bo‘ladi. Vaqtlar o‘tadi. Xudo xohlasa 10-12 yildan keyin biz niyat qilgan, butun dunyo bilan kurasha oladigan yoshlar paydo bo‘ladi. Men bunga ishonaman”, -deya Prezidentimiz o‘z fikrlarini bildirdi.¹

Kalit so‘z: Abdulla Qodiriylar, Cho‘lpon, ijod, so‘z sehri, maktab, “Turon kutubxonasi”, davr, tuzum, xon.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Abdulla Qodiriylar nomidagi ijod maktabiga tashrifi davomida yozuvchi va shoir, adabiyotshunosolimlar, yosh ijodkorlar bilan muloqot qiladi. “Bitta narsani hammamiz bilishimiz kerak. Adabiyotsiz iqtisodiyot ham, ma’naviyat ham bo‘lmaydi. O‘zini hurmat qilgan inson Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ini bir emas, bir necha marta o‘qigan bo‘ladi. Nega desangiz, uni o‘qigan odam hech qachon oilaga xiyonat qilmaydi, kerak bo‘lsa vatanga xiyonat qilmaydi. Jadid bobolarimiz Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriylar, Behbudiy, Munavvarqori... Ular imorat qurmagan, o‘ziga boylik izlamagan. Bitta-yu bitta xazina ne mashaqqat bilan topgan pullariga kutubxona qurbanlar. Shu “Turon” kutubxonasini ham o‘zlarining mablag‘lariga qurib, mana shu elimizga, kerak bo‘lsa, o‘zligimizga namoyon qilib, tirik haykal qilib ketgan desak to‘g‘ri bo‘ladi. Bu kutubxona namuna bo‘lishi kerak. Bu kutubxonada ma’rifat nuri bizga har tomonlama yangi-yangi zafarlar, natijalarga madadkor bo‘lishi kerak. Bu kutubxonaning nuri hammamizga kuch-quvvat berib turishi kerak.

1. ABDULLA QODIRIY BOSHIDAN O‘TGAN KUNLAR

“Tarixni g‘oliblar yozadi”, - deyishadi. Haqiqatdan ham, g‘oliblar yozib qo‘limizga tutqazib qo‘ygan to‘p-to‘p qog‘ozlarda asr jinoyati bo‘lib bo‘yab bejaldi, ko‘klarga ko‘tarildi. Hujumlarda berilgan voqealar hamon jumboqli, hamon chigal. Bir savol ortidan, o‘n savol keladi. Abdulla Qodiriylar va uning safdoshlari taqdiri nechun bunday ayanchli kechdi? Bu savollarga javob toppish

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 26-dekabr kuni Abdulla Qodiriylar nomidagi ijod maktabiga tashrifi davomida so‘zlagan nutqidan.



uchun moziyga qaytamiz. Zero, Qodiriy ta'biri bilan aytganda “Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish, xayrli deydilar”. Moziydan, yaqin o’tkan kunlardan, tariximizning eng kirli, qora kunlariga boqib, undan haqiqat izlaymiz.

Abdulla Qodiriy 1894-yili 10-aprelda Toshkent shahrida Beshyog‘och dahasi to‘rtinchi Eshon guzar mahallasida dunyoga kelgan. Otasi Qodir bobo yigitlik chog‘larida savdo bilan shug‘ullangan, sarbozlik ham qilgan. Keyinchalik keksaygach bog‘bonlik qilib kun kechirgan. Onasi Josiyatbibi uybekasi bo‘lgan.

Abdulla Qodiriy nega yozuvchilik qismatiga bo‘yin egdi? O‘sha paytlardagi davrning katta dardini o‘z asarlarida ko‘rsata oldi. Bu dard uchun, bu asarlar uchun u suqmatayoq Julqunboyga, Ovsar-u tentakka aylandi, boshini ming bir toshga urdi. Dastlabki asarlaridayoq islo hatchchi-ma’rifatchi ekani ayon bo‘ladi. Abdulla Qodiriy 21 yoshidan boshlab „To‘y“, „Ahvolimiz“, „Millatimga bir qaror“, „Fikr aylag‘il “nomli she’rlari bilan xalqiga murojaat qilgan.

Ko‘rbizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yetamiz,
Joyi kelgan chog‘ida, vijdonni pulga sotamiz.

O‘g‘limizga na adab, na fan, na yaxshi so‘ylamak,
Na Xudoning buyrug‘I bo‘lgan ulum o‘rgatamiz.

2. “MEHROBDAN CHAYON”NING TAG ILDIZLARI

“Mehrobdan chayon” — o‘zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning ikkinchi yirik asari, 1928-yil fevralda yozib tugatilgan. Roman birinchi marta 1929-yil Samarqandda bosilib chiqdi. Roman mavzusi 19-asr hodisalari — „xon zamonlari“ davridagi o‘zboshimchaliklarni ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lsa-da, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli singdirilgan.

Asarni „Mehrobdan chayon“ deb atash, ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh— sajdagohdan chiqqan, o‘sha dargohga nomunosib, munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo‘y, e’tiqodsiz kishilarga ishoradir. Romanda Anvar bilan Ra’nuning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih mahdumning humoristik obrazi adabiyotshunoslar tomonidan yozuvchining jiddiy yutug‘i deya hisoblanadi.

Asar uzoq yillar davomida juda ko‘p marotaba qaytadan nashr etilgan. Jumladan 1994-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan “O’tkan kunlar” bilan bir kitobda 602 betli 60 000 nusxada, 2016-yilda Yangi asr avlodi nashriyoti tomonidan 512 betli yumshoq muqovada, 2008 va 2018-yillarda Sharq nashriyoti tomonidan 288 betli qattiq muqovada nashr etilgan.



Garchi „Mehrobdan chayon“da davr zug‘umi muayyan darajada sezilsa ham, adibda goho tarafkashlik mayllari ko‘rinsada, amalda realizm mavqeida turgan, tarixiy haqiqatni mumkin qadar haqqoniy ifodalashga intilgan. Yozuvchining „Mehrobdan chayon“dagi realistik mahorati Solih maxdum obrazida juda yorqin namoyon bo‘lgan. Romanda muallif yengil hazil-mutoyiba, kulgi-yumor, piching, kinoya-kesatiq, hajv orqali maxdum tabiatiga xos „maqtab bo‘lmaydigan“ xususiyatlarni bat afsil ko‘rsatadi. Bunday xususiyatlarning ichki va tashqi ijtimoiy ildizlarini ham ochadi. Ayni paytda mahdumning „hamma nuqsonlarini yuvib ketarlik“ fazilatini ham ta’kidlaydi: „nima bo‘lganda ham maxdum o‘z zamonasining eng oldingi domlalaridan, Qo‘qon aksariyatining savodxon bo‘lishlariga sababchi ustozlardan“. Romandagi Anvar bilan Ra’no obrazlari, bir qarashda, romantik qahramonlarday taassurot beradi. Barkamollik – aql-zakovat, do‘stga, sevgiga sadoqat, erk,adolat yo‘lidagi shijoat bobida ular afsona, doston qahramonlarini eslatadilar. Ishqiy mulohazalar bobida bu ikki yosh juda erkin, oralaridagi gap-so‘zlar bir qadar kitobiy, shoirona... Masalaga sinchiklab qaralsa, Anvar va Ra’nodagi favqulodda, kitobiy tuyulgan xislatlar, ularning „g‘ayritabiyy“ xatti-harakatlari mantiqan va ruhiy jihatdan asoslangan. Ular mакtab ko‘rgan, yaxshi tarbiya, chuqur bilim olgan, Sharqning yuksak madaniyati, gumanistik g‘oyalarini o‘zlari uchun chin e’tiqod, bosh maqsad qilib olgan odamlardir. Adib asar personajlari qismati bilan bog‘liq holda muhim tarixiy hodisalar, shaxslar, sarguzashtlar haqida ham ma’lumot beradi. Solih maxdumning kechmishi, otabobolari qismati bahonasida keltirilgan Amir Umarxonning kanizi to‘g‘risidagi hikoya, haq ishlari uchun jabr ko‘rgan Sayidxon, mulla Siddiq va Mo‘minjonlarning achchiq qismati, Xudoyorxon tarixi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, Og‘acha oyim sarguzashtlari, xon harami, xotinlari, o‘rdadagi qullar haqidagi aniq ma’lumotlar asarda salmoqli o‘rin tutadi. Ular bilan tanishganda hujjatli-tarixiy, publisistik asar o‘qiyotganday bo‘lasiz. Yozuvchi ba’zan qahramonlari tabiatini, xususan haramdagi qizlar fofjasini hazil-mutoyiba, o‘yin-kulgi orqali ochib beradi. Ammo bu kulgili bo‘lib tuyulgan hodisalar zamirida jiddiy insoniy drama va shafqatsiz haqiqat yotadi. Xullas, „Mehrobdanchayon“ hayot haqiqatini „orttirmay va kamitmay“ o‘z holicha jamiki qirralari, tovlanishlari bilan gavdalantirgan, xarakterlar olamini, ruhiyatini o‘ziga xos ohanglar, bo‘yoqlar vositasida kashf etib bergen o‘xshashi yo‘q badiiy obidadir. Abdulla Qodiriy juda qisqa, bor yo‘g‘i 44 yil umr ko‘rdi. Shu yillarning har bir daqiqasini Qodiriy o‘zi uchun emas, xalqi uchun, jaholat botqog‘iga botgan yurtini ozod etmak uchun sarfladi. Har bitta



she'rlarida, hikoyalarida, felyeton-u hajviyalarida, romanlarida xalqiga murojaat qilishdan to'xtamadi. Otabek bo'lib yuqori lavozimli ziyoli qatlamdan, adolatl podshohlardan umidvor bo'ldi, Kalvak Mahzum qiyofasida e'tiqodiga sobit Qodiriyni ko'rsatdi, "Yig'indi gaplar" maqolasi orqali "Ovsar" qiyofasida bor haqiqatlarni ochiqladi, Julqunboy qiyofasi orqali kulgu ostida juda achchiq haqiqatlarni keltirdi. Bular ortidan o'ziga ne kunlar kelajagini Qodiriy bilar edi va bu vaziyatni "Mehrobdan chayon" romanida ko'rsatdi. Asar yakunidagi kabi Anvar qiyofasidagi Qodiriyni xalq qutqarishiga umid bog'ladi. Zero Cho'lpon aytganidek, "Xalq dengizdir, xalq to'lqindir, xalq kuchdir". Ming afsus... Abdulla Qodiriy hayotida uni qutqarguvchi xalq bo'lmadi. Lekin yozuvchining davrdosh-u davradosh, lek, darddosh bo'lolmagan hamkasblari mehrobdan chiqqan chayonlik vazifasini to'liq ado etdilar. Bundayin ruhdagi asarlari orqali Qodiriy o'z xalqiga, yurtdoshlariga, katta lavozimli amaldorlarga ko'zgudagi asl turqini ko'rsatib, rohat botqog'idan chiqishga chorladi. Ammo qon rangini xush ko'rguvchi qizil imperiyaga Otabek-u Anvar emas, Obid ketmonlar kerak edi. Hammasi tugadi. 1938-yil 4-oktabr Millatimiz tarixidagi qonli sana. Abdulla Qodiriyning so'nggi so'zlari esa hukmnii ijro qiluvchi zabitga bo'ldi. "So'nggi istagim, iltimos ikki rakaat namozimni o'qib olay..."

Non so'rab kelganga joningni berding,
Sendadir matonat, sendadir toqat.
Qon so'rab kelganga shoningni berding,
Yurtingni berding sen, qattol xiroji
O'ldirsang o'zingni o'ldirding faqat,
Assalomu alaykum dorning og'ochi.

(Rauf Parfi)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik- Milliy g'oyamizning poydevoridir ".16.02.2021
2. "O'tkan kunlar" romani . G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. Tosh.: 1992
3. "Mehrobdan chayon" romani . "Navro'z" nashriyoti –T.: 2019
4. Tajimuratovna, X. M., Menglibaevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Zaripbaevna, S. A. (2021). Umumiyo'Rta Ta'lim Maktabalarida O'Quvchilar Bilimlarini Baholash Va Nazorat Qilishda Elektron Vositalaridan Foydalanish Usullari. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 16-19.



5. Adilbaevna, K. Z. (2019). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS OF MODERN POETRY. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(11), 37-42.
6. Abdurakhimova, P. D. THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF BANKING INNOVATIONS'IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT OF COUNTRIES.
7. Subxanovich, A. A. (2023). Communication Features of a Qualified Doctor with Different Patients.
8. Gulmurza, K. (2021). Synonymy in Uzbek and Karakalpak Phrases with the Concept of "Speech". American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(6), 98-103.
9. Mengliboevna, B. S., & Sherali, M. (2021, October). The Need to Develop Students' Professional Competencies in Teaching Specific Methods of Teaching the Uzbek Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 131-132).

Foydalaniman internet saytlari:

1. www.n.ziyouz.com
2. www.kh-davron.uz